



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 3-son

VOLUME 3 / ISSUE 3 / 2023  
DOI:10.51788/TSUL.CCJ.3.3.

ISSN 2181-2179  
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



**Crossref**  
Content  
Registration



# MUNDARIJA

## 12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

**Yermashev Jengis Maratovich**

KONTRABANDA JINOYATINING OBYEKTIV BELGILARI ..... 4

**Maxmadiyarova Xumora O'ktamovna**

JINOYAT ISHINI TORTISHUVGA ASOSAN YURITISHDA TARAFLAR FAOLLIGINI  
KUCHAYTIRISH .....14

## 12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

**Базарова Дилдора Бахадировна, Хан Виталий Вячеславович**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПРИНЦИПОВ В УГОЛОВНОМ  
СУДОПРОИЗВОДСТВЕ УЗБЕКИСТАНА .....24

**Sultonov Abdulla Azamatovich**

EKSPERTLARGA, TARJIMONLARGA, MUTAXASSISLARGA PROTSESSUAL  
VAZIFALARNI BAJARGANLIK UCHUN HAQ TO'LASH .....38

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.3./AJUK4455>  
UDC: 343.15(045)(575.1)

# EKSPERTLARGA, TARJIMONLARGA, MUTAXASSISLARGA PROTSESSUAL VAZIFALARNI BAJARGANLIK UCHUN HAQ TO'LASH

**Sultonov Abdulla Azamatovich,**

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi  
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida dotsenti,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0009-0006-5313-8363  
e-mail: sultonovabdulla102@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tergov yoki sud jarayonida o'z vazifalarini bajargan ekspert, tarjimon va mutaxassislar haq to'lash mexanizmlari muhokama qilingan. Bunda asosiy e'tibor protsessual xarajatlarga oid jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, huquqni qo'llash amaliyoti hamda jinoyat-protsessual huquqidagi noaniqliklarga qaratilgan. Aniqlangan masalalarning ekspert, tarjimon va mutaxassislar haq to'lash mexanizmlariga ta'sir darajasi o'rganilgan. Qonunchilik normalari, mahalliy, shuningdek, chet ellik olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Ekspert, tarjimon va mutaxassislarning jinoyat protsessida tutgan o'rni, ularga bajargan vazifasi uchun haq to'lashda inobatga olinadigan jihatlar, jumladan, vazifalarni xizmat topshirig'i tartibida bajarish xususiyatlariga oid aniqlashtiruvchi tavsiyalar berilgan. Tahlillar asosida ekspert, tarjimon va mutaxassislar haq to'lash mezonlari va shartlarini tartibga solish hamda jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflarni qonunchilikni takomillashtirishda, jinoyat ishlarini yuritish amaliyotida, shuningdek, jinoyat-protsessual huquqi nazariyasini rivojlantirishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur takliflarning amalda joriy etilishi ekspert, mutaxassis, tarjimonni qonunda belgilangan protsessual huquq va majburiyatlariga to'liq amal qilish hamda o'z vazifalarini sidqidildan bajarishga undaydi hamda jinoyat protsessida shaxsning mulkiy huquqlari ishonchli muhofaza qilinishiga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** jinoyat ishi, protsessual vazifa, xarajat, haq to'lash, ekspert, tarjimon, mutaxassis, xizmat topshirig'i, miqdor, tergov, sud.

## ОПЛАТА ТРУДА ЭКСПЕРТОВ, ПЕРЕВОДЧИКОВ, СПЕЦИАЛИСТОВ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ОБЯЗАННОСТЕЙ

**Султанов Абдулла Азаматович,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
доцент кафедры уголовного и процессуального права  
Академии МВД Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются механизмы оплаты труда экспертов, переводчиков и специалистов при выполнении ими обязанностей в ходе следствия или судебного разбирательства. При этом основное внимание сосредоточено на уголовно-процессуальном законодательстве, процессуальных издержках, правоприменительной практике и пробелов в уголовно-процессуального законодательства. Изучена степень влияния этих вопросов на механизмы оплаты труда экспертов, переводчиков и специалистов. В сравнительно-правовом плане проанализированы законодательные нормы, научно-теоретические взгляды отечественных и зарубежных учёных. Даны уточняющие рекомендации о роли экспертов, переводчиков и специалистов уголовном процессе, аспектах, которые необходимо учитывать при оплате их труда при выполнении обязанностей, в том числе об особенностях выполнения обязанностей в порядке служебного поручения. На основе анализа разработаны предложения, направленные на регулирование критериев и условий оплаты труда экспертов, переводчиков и специалистов за выполняемые ими задачи, а также на совершенствование уголовно-процессуального законодательства. Разработанные научно-практические предложения могут быть использованы при совершенствовании законодательства, в практике ведения уголовных дел, а также при развитии теории уголовно-процессуального права. Реализация данных предложений на практике будет способствовать полному соблюдению установленных законом процессуальных прав и обязанностей эксперта, специалиста и переводчика, а также эффективному исполнению своих обязанностей, создаст основу для надёжной защиты имущественных прав лиц в уголовном процессе.

**Ключевые слова:** уголовное дело, процессуальная задача, стоимость, вознаграждение, оплата, эксперт, переводчик, специалист, служебное задание, размер, расследование, суд.

## PAYMENT OF EXPERTS, TRANSLATORS, AND SPECIALISTS FOR THE PERFORMANCE OF PROCEDURAL DUTIES

**Sultanov Abdulla Azamatovich,**  
Doctor of Philosophy (PhD) in law sciences,  
Associate professor of the Department of Criminal-Procedural Law of the  
Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** *This article discusses the payment mechanisms for experts, translators, and specialists who have performed their duties during the investigation or trial. The main attention is focused on criminal-procedural legislation on procedural expenses, law enforcement practice, and uncertainties in criminal-procedural law via this article. The degree of impact of the identified issues on the mechanisms of payment of fees to experts, translators, and specialists for their work has been studied. Legislative norms and the scientific-theoretical views of local and foreign scientists have been analyzed in comparative legal terms. The roles of experts, translators, and specialists in the criminal process and the aspects to be taken into account when paying them for the tasks performed, including the features of performing the tasks in the order of the service assignment. The proposals have been developed on the basis of the analysis, regarding the regulation of the criteria and conditions for paying experts, translators, and specialists for the tasks they perform and the improvement of criminal procedural legislation. It is expedient to use the developed scientific and practical proposals in the improvement of legislation, in the practice of conducting criminal cases, as well as in the development of the theory of criminal-procedural law. The implementation of these proposals in practice encourages full compliance with the procedural rights and obligations of the expert, specialist, and translator established by the law, as well as the serious performance of their duties, and creates the basis for the reliable protection of the property rights of a person in criminal proceedings.*

**Keywords:** *criminal case, procedural task, expense, fee, payment, expert, interpreter, specialist, service assignment, amount, investigation, court.*

## Kirish

Jinoyat ishlarini yuritish sifatini ta'minlash ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirishni taqozo etadi. Faoliyat samaradorligi, shu bilan birga, jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud) ning kasbiy mahorati, yuqori saviyadagi yuridik bilimi, mantiqiy fikrlash qobiliyati hamda protsessual yetakchiligiga ham bog'liq. Bundan tashqari, isbot qilish jarayonida maxsus bilimlar va ilm-fan texnika yutuqlarini qo'llash, tor ixtisoslikdagi ko'nikmalarga ega shaxslar imkoniyatidan foydalanish zarurati ham yuzaga keladi. Mazkur talab, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudga ekspertlar, tarjimonlar, mutaxassislarni jalb etish orqali hal etiladi. Jinoyat-protsessual kodeksida shu maqsadda ekspert, mutaxassis va tarjimonning huquq va majburiyatlari tartibga solingan. Ushbu huquqlardan biri JPKning 75- va 318-moddalariga muvofiq ekspertlar, tarjimonlar, mutaxassislarni surishtiruv, dastlabki tergov yoki suddagi ishtiroki uchun protsessual xarajat tarzidagi moddiy rag'batlantirish bilan bog'liq. Biroq jinoyat-protsessual qonun hujjatlaridagi ekspert, mutaxassis va tarjimon xizmatiga haq to'lashning huquqiy asoslari, amalga oshirish mexanizmlari hamda jinoyat-protsessual huquqidagi nazariy tushunchalarga oid ayrim masalalar ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

JPKning 75-moddasida ekspert, mutaxassis va tarjimonning o'z majburiyatlarini bajarganligi uchun protsessual xarajat tarzida haq olish huquqi kafolatlangan. Shu asosda ekspert, mutaxassis va tarjimon quyidagi xarajatlarni undirishga haqli hisoblanadi: *birinchisi*, protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek, sutkalik xarajat puli tariqasida beriladigan summalar (JPK 318-moddasi 1-band); *ikkinchisi*, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haq (ana shu vazifalar xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno) hisoblanadi (JPK 318-moddasi 3-band).

Bundan tashqari, JPKning 318-moddasi 6-bandida "ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summa" shaklidagi xarajat turi ham belgilangan. Mazmuniga ko'ra ushbu normada ekspertning davlat sud-ekspertiza muassasasida o'tkazilgan tekshiruv bilan bog'liq mablag'lari nazarda tutilgan.

Ayni ishda asosiy e'tibor JPKning 318-moddasi 3-bandidagi, ya'ni jismoniy shaxs sifatida jinoyat protsessida ishtirok etib, o'z protsessual vazifalarini bajargan ekspert, mutaxassis va tarjimonga haq to'lash mexanizmlariga qaratiladi. Boisi, jinoyat-protsessual qonunchiligida protsessual xarajatlarning ushbu turini to'lash mexanizmlariga doir quyidagi masalalarni aniqlashtirish zarurati mavjud:

ekspert, mutaxassis va tarjimon sifatida protsessga jalb etiladigan ishtirokchilarning doirasi;

surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda bajariladigan protsessual vazifalarning xususiyati;

xizmat topshirig'i tartibida bajariladigan vazifalarning mohiyati;

bajarilgan protsessual vazifalar uchun to'lanadigan haqning miqdori.

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda jinoyat ishlarini yuritishda ekspert, mutaxassis va tarjimonning ishtirokiga oid ayrim masalalar o'rganilgan. Biroq ushbu ishlarda asosiy e'tibor ekspert, mutaxassis va tarjimon bilan bog'liq umumiy masalalarga, jumladan, protsessual yoki kriminalistik jihatlariga qaratilgan. Xususan, I.R. Astanov jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlarini [1] o'rgangan bo'lsa, I.B. Djurayev tomonidan jinoyat ishlari yuritiladigan til prinsipi va tarjimonning protsessual maqomi [2] o'rganilgan. Ammo hech bir ish doirasida yuqoridagi masalalar, xususan, ekspert, mutaxassis va tarjimon tomonidan bajarilgan protsessual vazifa uchun haq to'lashning protsessual va iqtisodiy jihatlarini kompleks tarzda o'rganilmagan.

### **Material va metodlar**

Tadqiqotda jinoyat protsessi ishtirokchilari bo'lgan ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga haq to'lashga oid qonunchilik normalari, mahalliy, shuningdek, xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tariqasida tartibga



solingan bo'lib, ushbu shaxslar jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan jalb etiladi.

**Ekspert.** JPKning 67-moddasiga ko'ra, ekspert deganda xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunda bo'lsa, sud ekspertiga xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs sifatida ta'rif berilgan [3]. Bu borada, professor I.R. Astanov tomonidan berilgan "sud eksperti – xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs" mazmunidagi ta'rif ham qonunchilikdagi mazkur yondashuvlarni to'la tasdiqlaydi [1, 80-b.]. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ekspertni jinoyat protsessiga jalb etishdan maqsad muayyan ish holati bo'yicha ekspertiza tekshiruvini o'tkazish va xulosasini olish hisoblanadi. Uning surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda bajaradigan protsessual vazifasi ham tayinlangan ekspertiza tekshiruvi bo'yicha xulosasida aks ettiriladi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: muhokama qilinayotgan norma asosida ekspertga xulosa bergani uchun haq to'lanadigan bo'lsa, unda JPKning 318-moddasi 6-bandida (ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summa) qanday xarajat nazarda tutilgan? Ushbu savol bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunida ayrim masalalar tartibga solingan. Jumladan, qonunning 10-moddasiga muvofiq, sud eksperti sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin. Bunda *davlat sud eksperti* deyilganda sud-ekspertlik faoliyatiga ixtisoslashtirilgan davlat sud-ekspertiza muassasasining xodimi tushuniladi. Davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyati davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi sababli ushbu muassasada ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summalar davlat hisobiga olinadi. Qonunning 25-moddasida: "Boshqa tashkilot xodimlari va boshqa jismoniy shaxslar tomonidan sud ekspertizalari o'tkazilganligi uchun to'lov sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi", deyilgan. Bundan ko'rinadiki, JPKning 318-moddasi 3-bandida boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs tomonidan ekspertiza tekshiruvi o'tkazishda bajarilgan vazifalar uchun haq to'lanishi lozim.

Ammo qonunchilikda boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs tushunchalarini to'la ochib beradigan va ular kimlardan iborat bo'lishi mumkinligini oydinlashtiruvchi to'g'ridan to'g'ri normalar uchramaydi. Bu esa jinoyat-protsessining ushbu ishtirokchilari bilan bog'liq masalalarni aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

*Sud eksperti sifatida boshqa tashkilot xodimi.* Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida "boshqa tashkilot xodimi" so'zi "davlat sud-ekspertiza muassasasi" so'zidan keyin va u bilan bir xil huquqiy maqomda qayd etiladi. Mazmunan boshqa tashkilot xodimi deganda jinoyat ishini yuritishga vakolatli davlat organi (mansabdor shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tayinlangan sud ekspertizasini



o'tkazish yuklatilgan tashkilotda mehnat qiladigan hamda mazkur topshiriqni bajarishga jalb etilgan shaxsni tushunish mumkin. Eng muhimi, ushbu tashkilotning asosiy funksiyasi ekspertiza tekshiruvini o'tkazishga ixtisoslashtirilmagan bo'lishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita ana shunday tashkilotlardan biri hisoblanadi. Boisi, ushbu tashkilotning asosiy faoliyati vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq din ishlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, ushbu qo'mita tegishli qaror yoki ajrimga muvofiq, respublikada chiqariladigan yoki chet ellardan keltiriladigan diniy mazmundagi materiallar (matbuot va elektron nashrlar, audio-, videokassetalar, CD, DVD va boshqa elektron tashuvchilarni, Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan diniy mazmundagi materiallar) bo'yicha dinshunoslik ekspertizasini o'tkazishi ham mumkin. Shuningdek, asosiy vazifasi psixiatriya yordami ko'rsatish hisoblangan Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi psixiatriya muassasalaridan (sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazadigan) [5] ham boshqa tashkilot xodimi sifatida ekspertlar jalb etilishi mumkin.

*Sud eksperti sifatida jismoniy shaxs.* Ayrim holatlarda davlat sud-ekspertiza muassasalari yoki boshqa tashkilotlarda jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli bo'lgan masalalar bo'yicha maxsus bilimga ega mutaxassislar mavjud bo'lmasligi mumkin. Shunday vaziyatda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya tekshirish obyekti bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa jismoniy shaxsni ekspert sifatida jalb etish vakolatiga ega. Mavjud tartibga ko'ra, ushbu shaxs biron-bir davlat sud-ekspertiza muassasasi shtatida turmasligi va sud ekspertizasini uni tayinlagan organning (shaxsning) topshirig'ini bajarish tartibida o'tkazishi lozim bo'ladi. Shuningdek, belgilangan malaka talablarida sud eksperti sifatida jalb etiladigan boshqa tashkilot xodimi va boshqa jismoniy shaxs oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lishi lozimligi qayd etilgan. Demak, xulosa qilish mumkinki, yuqoridagi talablarga javob bergan, shuningdek, jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan ish holatlari yuzasidan xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, voyaga yetgan har qanday jismoniy shaxs sud eksperti sifatida jalb etilishi mumkin. Sud ekspertining mazkur turiga misol sifatida 2011-yilda A. Kushmatov tomonidan "O'zbekfilm" hamda "Zamin Film" hamkorligida suratga olingan [6] "Ko'rinmaslar" [7] filmi qahramoni, ya'ni eski turkiy bitiklari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan tabib obrazini keltirsa bo'ladi\*. Film ssenariysiga ko'ra, jinoyat ishi bo'yicha tergov organi tomonidan ish holatiga aniqlik kiritish maqsadida davlat yoki xususiy sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilotning shtatida turmaydigan, mustaqil tabiblik bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxs, ya'ni A. Jalilov ekspert sifatida jalb etiladi.

\* Izoh. Ushbu misol tergovchining jismoniy shaxs sifatidagi ekspertdan ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarni olish sahnasi orqali muhokama qilinayotgan masalani tasavvur qilish uchun keltirildi. Garchi filmidagi tabib A. Jalilov badiiy obraz bo'lsa-da, real hayotda jinoyat ishlarini yuritish faoliyatida shunday holat uchrashi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi.



*Mutaxassis. JPKning 69-moddasida mutaxassisga – tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish hamda mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun jalb etiladigan shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar sifatida ta'rif berilgan. Mazkur ta'rifda mutaxassisning maxsus bilimlarga egaligi bilan ekspertga o'xshash jihatlari ko'zga tashlanadi. Buni S.A. Sheyferning "Mutaxassis ham ekspert kabi tadqiqot olib boradi, ammo ushbu tadqiqot ekspertnikidan farq qiladi. Mutaxassisning tadqiqoti tergov harakatlari doirasida amalga oshirilmaydi va qo'llayotgan usullari aniq bo'lmay, dalilni tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi", degan fikrlari ham qisman tasdiqlaydi [8]. Biroq I.A. Astanov, bu ikki ishtirokchi jalb qilinish maqsadidan tortib berilgan savollarga javob berish darajasigacha o'zaro farq qiladi, deb hisoblaydi. Hamda mutaxassisni surishtiruvchi, tergovchi, sud uchun ishni tez va sifatli ko'rish uchun yaqindan yordam beruvchi yordamchiga qiyoslaydi. Shuningdek, tergov va sud jarayonida mutaxassis bir qator noprotsessual harakatlarni ham amalga oshirishini, masalan, uning maslahatlari, ekspert oldiga qo'yilishi kerak bo'lgan savollarni shakllantirishda yordam bersa-da, bu haqda hech qayerda aks ettirilmasligini ta'kidlaydi [1, 70-b.].*

Shu munosabat bilan, protsessual xarajatlarni to'lashning aniq mexanizmlarini shakllantirish uchun ekspert hamda mutaxassisning protsessual vazifalaridagi farqni aniqlashtirish lozim bo'ladi. Buning uchun yuridik adabiyotlardagi ushbu masalaga oid ayrim ilmiy qarashlarga e'tiborni qaratish joizdir. Jumladan, R.S. Belkin "mutaxassis bu tergovchi (sudya) tomonidan dalillarni to'plash, tekshirish, baholash va ulardan foydalanishga ko'maklashish uchun tergov harakatlariga jalb etiladigan shaxs"ligini qayd etgan [9]. T.V. Averyanovanning fikricha, mutaxassis xulosasi ish bo'yicha mavjud bo'lgan ekspert xulosasi bo'yicha ham berilishi mumkin. Bunday hollarda mutaxassisga dalil kuchiga ega bo'lgan ekspert xulosasini baholash topshiriladi deb o'ylamaslik lozim. Bunda so'z dalilni baholash haqida emas, balki uni tekshirish haqida boradi [10]. V.M. Bikov bo'lsa: "Mutaxassis, qoida tariqasida unga taqdim etilgan obyektlar – ashyolar va hujjatlarni ko'rib chiqish bilan cheklanib, o'zining maxsus bilimlaridan tadqiqot uchun emas, balki faqatgina unga taqdim etilgan obyektlarni baholashda foydalanadi", – deb ta'kidlaydi [11]. Bu borada B.N. Rashidovning "Ekspertdan farqli o'laroq, mutaxassis tadqiqotlar o'tkazmaydi va xulosalar bermaydi. U faqat maxsus bilimi va tajribasidan foydalanib, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga tergov harakatini amalga oshirishda yordam beradi. Ekspertning xulosasi dalillar manbayi hisoblanadi, mutaxassisning fikri esa bunday vazifani bajara olmaydi", degan xulosalari yuqorida bayon etilgan fikrlarni qisman tasdiqlaydi [12].

Bu esa mutaxassisning protsessual vazifalarini quyidagi omillar asosida farqlashga imkon beradi:

1) mutaxassis fikri maslahat tusida bo'ladi va tergovchining o'z qaroriga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Ayrim hollarda tergovchilar ham bunday bilimga ega bo'ladi. Ekspertiza esa ko'zga yaqqol tashlanmaydigan, allaqachon yo'qolib ketgan dalillarni qayta tiklashga yordam beradi;



2) mutaxassis ekspertdan farqli ravishda tadqiqot olib bormaydi, balki dalillarni aniqlashga, olishga va mustahkamlashga yordam beradi. Ekspert esa tadqiqot natijasi bo'yicha xulosa beradi va uning to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi;

3) ekspert xulosasi oqibatida jinoyat ishi qo'zg'atiladigan bo'lsa, bunday harakatlari uchun ekspert shaxsan javob beradi. Mutaxassisning jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'luvchi harakati uchun esa tergovchi javobgar hisoblanadi, chunki uning fikri maslahat ko'rinishiga ega bo'ladi [1, 77-b.].

Bundan tashqari, ekspert jinoyat ishini yuritishda mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan qaror yoki ajrim asosida qo'yilgan savollarga yozma shakldagi rasmiy hujjat, ya'ni ekspertiza xulosasi shaklida javob beradi. Mutaxassis bo'lsa og'zaki maslahat tarzida javob beradi yoki amaliy harakatlari orqali surishtiruvchi, tergovchi, sudga ko'maklashadi. Shuningdek, bir shaxs jinoyat ishi bo'yicha ham mutaxassis, ham ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin. Masalan, ichki ishlar organlari ekspert-kriminalisti hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tergov harakatida fotosuratga, videoyozuvga olish, izlardan qoliplar va nusxalar olish uchun mutaxassis sifatida tergovchiga ko'maklashib, keyin ekspert sifatida shu ish bo'yicha tayinlangan ekspertiza tekshiruvlaridan birini o'tkazib, ish bo'yicha xulosa berishi ham mumkin.

*Tarjimon.* Konstitutsiyaviy prinsipga ko'ra, sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va ishda ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi (Konstitutsiyaning 139-moddasi) [13]. Shu asosda jinoyat-protsessual qonunchiligida, jinoyat ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib borilishi belgilangan. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan, shuningdek, yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'z ona tilida yoxud o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlab beriladi. Ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim. Bundan tashqari, tarjimonga tegishli qoidalar jinoyat ishi bo'yicha kar yoki soqov ishtirokchilarning imo-ishoralarini tushuntirib berish, ya'ni surdo [14] tarjimasi uchun jalb etilgan shaxsga nisbatan ham qo'llanadi.

Qonun hujjatlarida jinoyat ishlari bo'yicha jalb etiladigan tarjimon uchun aniq malaka talablari belgilanmagan. Biroq ish yuritilayotgan til yoki protsess ishtirokchisi so'zlashadigan til bo'yicha yetarli darajada bilimga ega ekanligini tasdiqlash, shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha tarjima sifatini ta'minlash maqsadida muayyan til bo'yicha oliy ma'lumotli diplomga bo'lgan shaxsni tarjimon sifatida taklif qilish tavsiya etiladi. Bu borada I.B. Djurayev tomonidan berilgan *"Tarjimon – har ikki tilni erkin biladigan, ishdan manfaatdor bo'lmagan, sud va huquqni muhofaza qilish idoralarida ishlamaydigan, voyaga yetgan shaxs"* ta'rifida [2, 14-b.] ham tarjimonning muayyan tilni erkin bilish qobiliyatiga alohida urg'u berilgan. Darhaqiqat, ishga jalb etiladigan tarjimon uchun eng muhim sifat tegishli tilni mukammal o'zlashtirganligi hisoblanadi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Qonun talabiga ko'ra, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda xizmat topshirig'i tartibidan tashqari hollarda ekspert, mutaxassis, tarjimon tomonidan bajarilgan protsessual vazifalar uchun ishni yuritishga mas'ul davlat organi tomonidan haq to'lanishi lozim. Bu qoida asosan ishda ekspert, mutaxassis, tarjimon sifatida ishtirok etish uchun jalb etilgan, biron-bir davlat muassasasi shtatida turmaydigan jismoniy shaxslar uchun amal qiladi. Odatda ushbu shaxslar surishtiruv, tergov va suddagi muayyan vazifalarni ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organi (mansabdor shaxs)ning taklifi yoki o'zaro kelishuv (xizmat ko'rsatish shartnomasi)ga muvofiq bajaradi. Ish o'zaro kelishuv (xizmat ko'rsatish shartnomasi)ga muvofiq bajarilganda ish uchun to'lanadigan haqning miqdori ushbu kelishuvning shartlaridan biri bo'ladi. Xususan, tarjimon uchun to'lanadigan haq miqdorini belgilashda tilning murakkabligi hamda tarjima shakli (og'zaki, yozma, surdo), sarflangan vaqt singari muhim omillar inobatga olinishi lozim bo'ladi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida [15] ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining (2023-yil 28-oktabr, 570-son) qarori bilan tasdiqlangan "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomga 1-ilova tarzida berilgan "Tarjimonlarga to'lanadigan haq miqdorlari"da aynan ushbu omillar to'la inobatga olingan.

Taraflar o'rtasida o'zaro shartnoma bo'lmagan taqdirda esa ekspert, mutaxassis, tarjimon bajargan ishi uchun Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan, ya'ni BHMning 0,10 koeffitsiyenti (01.12. 2023-y. h. 340 000/34 000 so'm) miqdorida haq to'lanadi. Agarda ekspert, mutaxassis, tarjimon muayyan korxona, tashkilot va muassasaning shtatida turadigan xodim hisoblansa, surishtiruv, dastlabki tergov yoki suddagi protsessual vazifalarini xizmat topshirig'i tartibida bajarishi mumkin. Bunday holatda ularga bajargan ishi uchun haq ishni yuritishga mas'ul davlat organi tomonidan emas, balki ish joyida o'rtacha ish haqini saqlab qolish orqali qoplanadi. Ayrim holatlarda surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda bajarilishi lozim bo'lgan protsessual vazifalar muayyan korxona, tashkilot va muassasa shtatida turadigan xodimning xizmat vazifalariga kiritilmagan, shuningdek, protsessual vazifalarni ish vaqtidan keyin yoki dam olish, ta'til vaqti hisobidan bajarishga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday holda xodim tomonidan bajarilgan ish xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan deb hisoblanmaydi hamda unga bajargan ishi uchun protsessual xarajat tarzida haq to'lanishi lozim bo'ladi. Yana shuningdek, ekspert, mutaxassis, tarjimonning surishtiruv, dastlabki tergov yoki suddagi vazifalarini xizmat topshirig'i tartibida bajarish haqidagi ko'rsatmasi, albatta, yozma shaklda bo'lishi lozim. Bu o'z o'rnida xodimning xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan vazifalar uchun ish haqi, sarflangan kuch va texnik-vositalarni ish joyi hisobidan qoplash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur masalalar mohiyatan, xizmat topshirig'i tartibi tushunchasiga oydinlik kiritish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Taassufki, amaldagi mehnat qonunchiligi yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda "xizmat topshirig'i" tushunchasiga



berilgan ta'riflar ko'zga tashlanmaydi. Shu o'rinda "xizmat" so'zi [arabcha – xizmat, ish, lavozim, xizmat ko'rsatish, yordam] lug'aviy ma'nosiga ko'ra, biror tashkilot, muassasa yoki korxonada bajariladigan ish, vazifa; lavozim; shunday joyda ishlash mazmunida qo'llanadi. "Topshiriq" esa kimsaning zimmasiga yuklatilgan ish, vazifa, topshiriq bermoq, topshiriq olmoq ma'nolarida keladi. Mehnat qonunchiligida "xizmat topshirig'i" so'zi asosan xizmat safarlari tushunchasiga ta'rif berish bilan bog'liq normalarda qo'llangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksidagi (2022-yil 28-oktabr) "xizmat safari xodimning ish beruvchi farmoyishiga binoan doimiy ish joyidan tashqarida xizmat topshirig'ini bajarish uchun boshqa joyga ma'lum muddatga qiladigan safaridir" degan normani bunga misol sifatida keltirish mumkin. Shu asosda "xizmat topshirig'i" so'zining mazmunini izohlashda xizmat safarlarini o'tash tartiblariga oid hujjatlarga asoslangan holda ta'rif bersa bo'ladi.

### **Xulosalar**

Mavzu doirasida muhokama qilingan masalalar yuzasidan bildirilgan mulohazalar, ilmiy xulosalarni qonunchilikda aks ettirish hamda ekspert, mutaxassis, tarjimonga haq to'lashning protsessual asoslarini mustahkamlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

1) O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksini quyidagi mazmundagi yangi modda bilan to'ldirish:

*"Ekspert, mutaxassis, tarjimonga haq to'lash*

*Ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislarga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun quyidagicha haq to'lanadi:*

*ish joyidan ish haqi tariqasida – ish xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan bo'lsa;*

*Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda – ish ularning xizmat vazifalariga kiritilmagan bo'lsa va ish vaqtidan tashqari bajarilgan bo'lsa;*

*manfaatdor taraflar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq – ish tomonlar o'rtasida, shu jumladan, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan bitimlar (shartnomalar) asosida bajarilgan bo'lsa.*

*Ushbu moddaning birinchi qismi ikkinchi va uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollarda bajargan ish uchun haq to'lash surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida budget mablag'lari hisobidan to'lanadi".*

2) O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyunda qabul qilingan "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-249-sonli Qonuni 10-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi band bilan to'ldirish:

*"Bunda boshqa tashkilot deganda asosiy faoliyati sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, biroq xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassisga ega bo'lgan davlat yoki nodavlat yuridik shaxs tushuniladi".*

3) Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasidagi tarjimon tushunchasi bo'yicha quyidagi ta'rifni berish:

*"tarjimon – jinoyat protsessi ishtirokchisi ish yuritilayotgan tilni bilmagan yoki yetarli darajada bilmaganda yoki kar yoki soqov bo'lganda, shuningdek, biror matnni boshqa*



*tildan tarjima qilish zarurati yuzaga kelganda jalb etiladigan muayyan til bo'yicha tegishli kvalifikatsiyaga ega bo'lgan shaxs".*

4) "xizmat topshirig'i" so'zining mazmunini izohlashda xizmat safarlarini o'tash tartiblariga oid hujjatlarga asoslangan holda quyidagicha ta'rif berish:

*Xizmat topshirig'i tartibi, ish beruvchi tashkilot rahbari yoki tegishli vakolat berilgan shaxsning yozma shakldagi (buyruq, qaror, farmoyish) yoki ustxati (rezolyutsiyasi, siporishi) asosida xodimning o'z mehnat majburiyati doirasidagi vazifasini doimiy ish joyida yoxud undan tashqarida (xizmat safariga chiqib) bajarishi haqidagi ko'rsatmasidir.*

Mazkur takliflarning amalda joriy etilishi ekspert, mutaxassis, tarjimonga haq to'lashning huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan birga, ularni qonunda belgilangan protsessual huquq va majburiyatlarga to'liq amal qilinishi hamda o'z vazifalarini sidqidildan bajarishga undaydi.

Bu esa, o'z navbatida, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining maqsad va vazifalari samaradorligining ortishi hamda jinoyat protsessida shaxsning mulkiy huquqlari ishonchli muhofaza qilinishiga zamin yaratib, jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlar [Procedural and criminological aspects of the use of special knowledge in criminal cases]. Doctoral dissertation. Tashkent, 2018.
2. Djurayev I.B. Jinoyat ishlari yuritiladigan til prinsipi va tarjimonning protsessual maqomi [The principle of language in criminal proceedings and the procedural status of the translator]. Abstract of Doctoral dissertation. Tashkent, 2012.
3. Website kino-teatr.ru. Announcement of the movie "Invisible". Available at: <https://www.kino-teatr.ru/kino/movie/post/107611/annot>
4. Invisible new uzbek movie. Available at: <https://www.youtube.com/watch?v=1WvDSbQ32KY>
5. Sheyfer S.A. Sledstvennyye deystviya. Sistema i protsessualnaya forma [Investigative actions. System and procedural form]. Moscow, 2001, p. 136.
6. Belkin R.S. Kriminalistika [Forensics]. Brief encyclopedia. Moscow, Bolshaya rossiyskaya entsiklopediya, 1993, p. 80.
7. Averyanova T.V. Soderzhaniyye i kharakteristika metodov sudebno-ekspertnykh issledovaniy [Contents and characteristics of forensic research methods]. Moscow, 1994, p. 175.
8. Bykov V.M. Zaklyucheniye i pokazaniye spetsialista kak novyy vid dokazatelstv [Conclusion and testimony of a specialist as a new type of evidence]. Proceedings of



the 2nd All-Russian Scientific and Practical Conference on Criminalistics and Forensic Science. Moscow, EXEC of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2004, p. 75.

9. Rashidov B.N., Abduvahobov Sh.A. Jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida mutaxassisning isbot qilishdagi oʻrni [The role of an expert in evidence as a participant in criminal proceedings]. *Journal of Advanced Research and Stability*, 2022, August, vol. 02, iss. 08. ISSN: 2181-2608. Available at: <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/3663/3314> 234-237-b.

10. Surdo translator. Wikipedia, the open encyclopedia. Available at: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Surdo\\_tarjimon](https://uz.wikipedia.org/wiki/Surdo_tarjimon)

11. Sultonov A.A. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual xarajatlarni toʻlash mexanizmini takomillashtirish [Improvement of the mechanism of payment for procedural costs at the stage of bringing the case to court]. Doctoral dissertation. Tashkent, 2020, p. 189.



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 3-son

VOLUME 3 / ISSUE 3 / 2023  
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.3.

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOSH MUHARRIR:**

**N. Salayev**

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR:**

**S. Samadov**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

**D. Bazarova**

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

**Mas'ul muharrir:** K. Hakimov

**Muharrirlar:** Y. Mahmudov, Y. Yarmolik

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.ccj.tsul.uz](http://www.ccj.tsul.uz)

**E-mail:** [criminologyjournal@tsul.uz](mailto:criminologyjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1386.

Jurnal 2023-yil 27-oktabrda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i: 5,81.

Adadi: 30. Buyurtma: № 88.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti